

**TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI TIJORAT
BANKLARI ORQALI KREDITLASHNING AMALDAGI MEXANIZMLARI VA
HOLATI TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830615>

Tolibov G'olib Ko'klamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Telefon +998936537171

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda faol tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, uning hajmi barqaror o'sishini ta'minlash va tarkibini takomillashtirish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda xususiy tadbirkorlikning rolini har tomonlama oshirish, eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish hozirgi kunda mamlakatimizda hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan sanaladi. Bunda birinchi navbatda, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki va faolligini rivojlantirish to'g'risida fikir va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Tadbirkorlik, eksport, xususiy tadbirkorlik, korxonalar, tijorat banklari, tashqi bozor, milliy mahsulot, barqaror o'sish, valyuta tushumlari, moliyalashtirish.*

Kirish Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda faol tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "2030 yilga borib, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda"⁴.

Respublikamizda eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, uning hajmi barqaror o'sishini ta'minlash va tarkibini takomillashtirish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda xususiy tadbirkorlikning rolini har tomonlama oshirish, eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish hozirgi kunda mamlakatimizda hal

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. 2021 yil 6 noyabr. www.president.uz.

qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan sanaladi. Bunda birinchi navbatda, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki va faolligini rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”**da respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; eksportchi korxonalariga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish; **mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish;** davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan⁵.

Shulardan kelib chiqib tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishning muhim omillaridan biri sifatida tijorat banklari rolini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro savdo yo'nalishlarida nazariy tadqiqotlar olib borgan xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlari jumlasiga I.V.Kokushkina, M.S.Voronin, E.V.Vavilova, L.P.Borodulina, I.A.Hamedov, A.M.Alimov, J.J.Jalolov, G.G.Nazarova, N.Sirojiddinov, I.S. Hotamov⁶ va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlarini faoliyati, jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatini bank kreditlari orqali moliyalashtirish masalalari J.M.Keyns, SH.Z.Abdullaeva, U.O'.Azizov, A.A.Omonov, T.M.Qoraliev, D.G'ozibekov, N.G'.Karimov., T.Boboqulov, U.A.Abdullaev, R.T.SHomurodov, I.R.Toymuxamedov, R.R.Tojiev, A.A.Azlarova, M.M.Abduraxmanova⁷ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

⁶ И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.; Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 45 с.; Н.Сирожиддинов. Халқароо иқтисодиёт. 1-қисм: Ташқи савдо назарияси ва сиёсати. -Т.: Iqtisodiyot, 2019.-180 б.; Ҳамедов И.А., Алимов А.М. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2010.- 328 б.; Жалолов Ж.Ж. ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият асослари. Ўқув қўлланма. Т.: ДИТАФ, 2011. -156 б.; Назарова Г.Г. ва бошқалар. Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув: тажриба ва амалиёт. Т.: ТДИУ, 2010.-224 б.; И.С. Хотамов ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият: ривожланиш асослари ва устувор йўналишлари. Оммабоп рисола. Т.ТДИУ, 2014.-56 б.

⁷ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. - М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с., Ш.З.Абдуллаева, У.Ў.Азизов. Банк иши. -Т.:Молия, 2019. -1024 б.; А.А.Омонов, Т.М.Қоралиев. Пул ва банклар -Т.: Молия, 2018.-464 б.; А.А.Азларова, М.М.Абдурахманова. Тижорат банкларининг актив ва пассивларини бошқариш. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. -326 б.; Т.И.Бобоқуллов, У.А.Абдуллаев. Халқаро валюта-кредит муносабатлари. -Т.:Iqtisod-Moliya, 2019. – 230 б.; Т.И.Бобоқуллов, У.А.Абдуллаев, Р.Т.Шомуродов. Monetar siyosat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash (taqqaslash), monografik kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Banklarning kapitallashuv darajasi va depozitlari hajmining oshishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish, banklar jami aktivlarining o'sib borishi uchun mustahkam zamin bo'lmoqda va natijada tijorat banklarining iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga qaraganda 2017-2021 yillarda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan milliy valyutadagi jami kreditlar qiymati 235,6, jumladan yuridik shaxs maqomidagi firmalarga 183,3, yakka tartibdagi tadbirkorlarga 95,7, jismoniy shaxslarga 566,2 foizga oshgan bo'lsa, chet el valyutasida jami kreditlar qiymati 375,7, jumladan yuridik shaxs maqomidagi firmalarga 374,0 foiz, yakka tartibdagi tadbirkorlarga 5,4 martaga oshgan (1-jadval).

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarni tarmoqlar bo'yicha tahlil etsak, 2018-2021 yillarda sanoat uchun 90,7, qishloq xo'jaligi uchun 57,2, qurilishga 23,2, savdo va umumiy ovqatlanishga 167,9, jismoniy shaxslarga 238,0 foiz oshgani holda, transport va kommunikatsiya sohalariga 0,9 foizga kamaygan (2-jadval). Markaziy bank pul kredit siyosatining yana bir muxim instrumenti qayta moliyalash stavkasi hisoblanib, u pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarish hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

-T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 223 b.; И.Тоймухамедов Халқаро банк иши. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2019. - 176 б.; R.R.Tojiyev. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. –Т.: Iqtisodiyot, 2019. -276 б.; Абдуллаев Ё. ва бошқ. Банк иши. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. –533 б.;

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, (qarz oluvchilar bo'yicha), mlrd. so'm

Davr	Hammasi	milliy valyutada				chet el valyutasida			
		jami	shundan:			jami	shundan:		
			yuridik shaxs-larga	yakka tartib-dagi tadbirkorlarga	jismoniy shaxs-larga		yuridik shaxs-larga	yakka tartib-dagi tadbirkorlarga	jismoniy shaxs-larga
2017	49 540,5	36 090,7	28 470,6	1 538,1	6 082,0	13 449,8	13 445,1	4,7	-
2018	100 658,2	66 695,5	48 247,6	3 061,6	15 386,4	33 962,6	33 797,8	160,7	4,1
2019	140 762,4	80 406,7	51 498,2	2 430,7	26 477,8	60 355,7	60 279,9	75,8	-
2020	127 207,5	79 040,6	48 010,0	2 564,0	28 466,6	48 167,0	48 064,8	102,1	-
2021	166 240,9	102 258,6	58 637,8	3 099,9	40 520,9	63 982,3	63 729,0	253,3	-
2021 y. 2017 y.g'a nis., %	335,6	283,3	205,9	195,7	666,2	475,7	474,0	5,4 m.	-

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.cb.uz

2-jadval


Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar (tarmoqlar bo'yicha), mlrd. so'm

Davr	jami	shundan:						
		sanoat	qishloq xo'jaligi	qurilish	savdo va umumiy ovqatlanish	transport va kommunikatsiya	jismoniy shaxs-lar	boshqalar
2018	100 658,2	26 915,2	13 443,5	5 475,8	10 024,9	6 364,9	11 989,8	26 444,1
2019	140 762,4	43 390,2	14 051,7	5 446,6	13 159,0	9 757,3	26 477,8	28 497,8
2020	127 207,5	41 603,0	18 772,2	4 939,5	18 262,1	4 366,4	28 466,6	10 797,8
2021	166 240,9	51 335,6	21 133,2	6 745,4	26 849,6	6 309,6	40 520,9	13 346,6
2021 y. 2018 y.g'a nis., %	165,1	190,7	157,2	123,2	267,9	99,1	338,0	50,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.cb.uz

Markaziy bankning asosiy foiz stavkasini pasaytirilishi birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratiladigan kreditlar va mikrokreditlar bo'yicha to'lovlarni yengillashtiradi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyorida qo'shimcha mablag'lar qolishini ta'minlaydi va pirovardida aylanma mablag'larni ko'payishiga xizmat qiladi.

Inflyatsiya darajasi, pul massasi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, qayta moliyalash stavkasi 2004 yildan yillik 16 foizdan 2021 yilda 14 foizga tushirildi va hozirgacha o'zgartirilmagan holda saqlab turilibdi. (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki qayta moliyalash stavkasi dinamikasi, foizda ⁸

Bu esa ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladigan kreditlar va mikrokreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini pasaytirishga hamda kreditlar hajmining oshib borishishiga zamin yaratgan.

Milliy valyutasidagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari 3 va 4-jadvalalarda keltirilgan.

Milliy valyutadagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari*(o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda), %da

3-jadval

Kredit turi va muddati	2021 yil											
	Yan.	Fev.	Mart.	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sent.	Okt.	Nov.	Dek.
Imtiyozsiz bank kreditlari bo‘yicha												
Jami kreditlar bo‘yicha	20,8	21,3	21,4	21,3	21,6	21,3	21,5	21,4	21,2	21,2	21,4	20,8
<i>shu jumladan:</i>												
Qisqa muddatli kreditlar	21,3	21,8	21,9	21,3	21,6	21,2	21,6	21,2	21,2	21,2	21,6	21,2
Uzoq muddatli kreditlar	20,6	21,1	21,2	21,3	21,6	21,4	21,5	21,5	21,2	21,2	21,4	20,5
- 1 yildan 2 yilgacha	21,9	22,0	21,7	21,5	22,1	22,2	21,6	21,9	21,5	21,0	21,5	21,4
- 2 yildan 3 yilgacha	21,4	22,1	22,0	22,7	22,6	22,4	23,1	22,9	23,2	23,3	23,1	22,7
- 3 yildan 4 yilgacha	22,0	22,6	22,5	21,2	22,7	22,2	22,7	23,4	22,1	23,5	23,2	20,8
- 4 yildan 5 yilgacha	18,9	20,1	20,1	19,2	20,4	20,3	19,3	20,3	20,4	20,0	21,6	21,5
- 5 yildan 10 yilgacha	18,5	19,0	18,7	19,5	20,2	20,0	19,7	19,4	19,8	19,9	19,5	19,0
- 10 yildan yuqori	17,0	17,4	17,3	17,3	17,3	17,2	17,6	17,3	17,3	17,3	17,3	17,2
Imtiyozli bank kreditlari bo‘yicha												
Jami kreditlar bo‘yicha	11,3	11,4	11,7	11,1	11,2	11,2	11,3	11,4	13,3	12,7	11,4	11,4
<i>shu jumladan:</i>												
Qisqa muddatli kreditlar	11,0	10,6	10,6	11,1	11,0	11,7	11,9	8,1	13,3	12,4	9,8	10,8
Uzoq muddatli kreditlar	11,9	13,2	12,5	11,1	11,2	11,2	11,2	11,9	13,3	13,3	12,8	11,6
- 1 yildan 2 yilgacha	13,2	14,0	10,3	9,6	9,2	9,7	9,7	9,5	12,4	13,5	11,2	10,0
- 2 yildan 3 yilgacha	14,0	13,9	13,9	13,6	13,7	13,7	13,6	13,7	13,7	13,5	13,5	12,4
- 3 yildan 4 yilgacha	9,8	14,0	12,6	13,4	12,4	13,8	12,2	10,8	12,6	11,8	12,1	12,3
- 4 yildan 5 yilgacha	10,7	9,3	11,0	12,1	10,7	9,7	12,8	13,2	13,3	13,3	13,4	13,4
- 5 yildan 10 yilgacha	11,2	11,0	10,2	12,1	12,3	12,7	12,1	12,4	12,1	11,6	12,4	11,6
- 10 yildan yuqori	9,4	7,1	6,5	5,3	9,1	8,9	11,2	9,4	9,2	3,4	5,7	11,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzilgan. www.cb.uz

Chet el valyutasidagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari*(o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda)

4-jadval

Kredit turi va muddati	2021 yil											
	Yan.	Fev.	Mart.	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sent.	Okt.	Nov.	Dek.
Jami kreditlar bo‘yicha	7,1	6,9	7,1	6,8	6,7	6,5	6,7	6,2	6,7	6,2	6,4	6,2
<i>shu jumladan:</i>												
Qisqa muddatli kreditlar	7,5	7,1	6,8	6,4	6,4	6,1	6,8	6,7	6,9	6,7	6,0	6,5
- 60 kungacha		9,1	7,1	6,0				8,0		5,5		8,3
- 61 kundan 90 kungacha	9,3	6,1	5,5	6,0	6,2	3,5	3,5	3,5	4,6	1,7		5,5
- 91 kundan 180 kungacha	7,5	7,9	6,3	5,3	6,0	4,6	5,4	4,9	5,0	7,5	6,1	5,9
- 181 kundan 365 kungacha	7,4	7,1	6,9	6,6	6,4	6,2	6,9	6,7	7,0	6,7	6,0	6,8
Uzoq muddatli kreditlar	6,8	6,7	7,2	7,0	6,8	6,7	6,7	6,0	6,7	6,0	6,5	6,1
- 1 yildan 2 yilgacha	7,2	7,5	7,6	7,4	7,5	6,8	7,0	5,6	6,6	6,2	6,9	6,7
- 2 yildan 3 yilgacha	8,2	7,9	8,0	7,6	7,0	7,2	7,4	7,2	6,1	6,9	7,0	6,7
- 3 yildan 4 yilgacha	7,3	7,6	7,1	7,7	7,0	7,0	6,0	6,2	8,6	5,7	7,8	6,6
- 4 yildan 5 yilgacha	6,8	7,0	6,9	6,7	7,3	6,8	7,5	7,5	7,3	6,2	6,4	7,2
- 5 yildan 10 yilgacha	4,9	4,8	5,8	5,7	5,7	6,0	6,5	6,0	6,6	5,1	6,2	5,3
- 10 yildan yuqori	2,8	4,1		3,2	5,4	4,5	2,0	2,5	5,5	5,3	2,9	2,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzilgan. www.cb.uz

Tadbirkorlik sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali kreditlashda kredirlarning yillik foiz stavkasi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra tijorat banklarining milliy valyutadagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari (o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda) 2021 yil davomida imtiyozsiz bank kreditlari bo‘yicha oylar kesimida ovzgaruvchan tendensiyaga ega bo‘lib, 20,8 dan 21,6 foizgacha farq qilgan. Imtiyozsiz

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. www.cbu.uz

bank kreditlari bo'yicha bu ko'rsatkich 11,1 dan 11.7 foizgacha bo'lgan (3-jadval). Bu foiz stavkalari kredit muddatiga qarab turlicha, ya'ni qisqa va uzoq davrlar uchun farqlanadi.

Chet el valyutasidagi bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari (o'rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda) 2021 yil davomida jami kreditlar bo'yicha 6,2 dan 7,1 foizgacha, qisqa muddatli kreditlar bo'yicha 6,1 dan 7,5 foizgacha, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha 6,1 dan 7,2 foizgacha farq qilgan (4-jadval).

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun barcha manbalardan ajratilgan kreditlar 2017-2021 yillarda 204,4 foizga, jumladan ajratilgan mikro kreditlar 320,2, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 150,0, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga 334,1 va tashqi iqtisodiy faoliyatni kreditlashga 241,8 foizga oshgan (5-jadval).

Keyingi yillarda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini kreditlashtirish hajmi yildan-yilga oshib borayotgani ijobiy holdir. Ammo, kuzatishlar kredit olishni istovchi barcha kichik korxonalariga ham birdek imkoniyat kredit olish imkoniyati mavjud emasligini ko'rsatadi. Aslida, viloyat miqyosida barcha tadbirkorlik sub'ektlarining yiliga 8-10 foizigina kredit olish imkoniga ega bo'lmoqda. Bankda o'z hisob raqamiga ega bo'lgan korxonalarining aksariyat qismi banklar orqali hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazishda g'ov bo'layotgan sabablarga hisob raqamdan pul olishdagi chegaralanish va banklarda naqd pulning yo'qligini ta'kidlashadi.

5-jadval

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar (asosiy yo'nalishlar bo'yicha), mlrd. so'm

Yillar	Barcha moliyala- shirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	shu jumladan:					
		Ajratilgan mikrokredi- talar	Oilaviy tad- birkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida	shundan: aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga	Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlan- tirishga*	Tadbirkor ayollarni qo'llab- quvvat- lashga	Tashqi iqtisodiy faoliyatni kreditlashga (mln. AQSh dollari)
2017	19 564,7	3 952,1	3 426,5	3 115,2	4 186,8	2 269,5	984,6
2018	30 648,8	6 205,7	3 668,4	3 748,5	6 547,8	3 561,7	1 039,3
2019	55 430,0	10 777,5	1 136,1	4 906,3	8 772,2	4 499,8	1 633,7
2020	48 389,7	10 194,3	6 078,5	3 602,1	5 959,8	4 895,9	2 139,0
2021	59 552,1	15 092,4	8 566,3	6 830,0	18 176,6	7 756,8	1 756,2
2021 y. 2017 y.ga nisb. %da	304,4	420,2	250,0	219,2	434,1	341,8	178,4

* Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga ajratilgan kreditlar Davlat xizmatlari agentligining ma'lumotlariga asosan qayta shakllantiriladi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.cb.uz

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi, mlrd. so'm

Yillar	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq jaligi	Quri- lanish	Savdo umumiy at-lanish	Trans- port va amu- at-siya	Tadbir- korlarni port- ortini liyalash- hga	Bosh- qalar
2018	30 648,	9 358,	4 377,5	2 514	5 108,9	1 656,2	1 748,5	5 885,
2019	55 430,	19 087	9 305,3	4 489	7 005,1	2 558,1	4 906,3	7 880,
2020	48 ,7	15 ,1	6 854,7	3 ,7	9 386,0	4 390,6	3 602,1	5 ,5
2021	59 ,1	14 ,7	9 814,5	3 ,4	15 ,9	2 832,0	6 830,0	6 ,6
2021 y. 7 y.ga nisb. %d	194,3	156,4	224,2	150,6	304,1	171,0	390,6	103,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.
www.cb.uz

Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlarni tarmoqlar bo'yicha tahlil etsak, 2018-2021 yillarda sanoat uchun 56,4, qishloq xo'jaligi uchun 124,2, qurilishga 50,6, savdo va umumiy ovqatlanishga 204,1, tadbirkorlarning eksport-import faoliyatini moliyalashtirishga ga 290,6 foiz oshgani holda, transport va kommunikatsiya sohalariga 0,9 foizga kamaygan (2-jadval).

Xulosa va takliflar

Mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksport salohiyatini yuksaltirish iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini amalga oshiruvchi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qonunchilik bilan bir qator kafolatlar va imtiyozlar tizimi yaratilgan hamda ular davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. O'tgan yillar mobaynida eksportni rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimiz tarmoqlarining eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo hajmini barqaror o'stirish va uning tarkibida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan inqirozli holatlar va pandemiya tashqi bozorlarga kuchli ta'sir ko'rsatib, quyidagi holatlar namoyon bo'lmoqda:

- tashqi bozorlarda talabning pasayishi va raqobatning keskinlashuvi;
- jahon bozorlarida shakllanayotgan nomaqbul kon'yunktiv o'zgarishlar;
- asosiy savdo hamkorlari hisoblangan davlatlarda milliy valyutalarning qadrsizlanishi.

Banklarning kapitallashuv darajasi va depozitlari hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish, banklar jami aktivlarining o'sib borishi uchun mustahkam zamin bo'lmoqda va natijada tijorat banklarining tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga olib kelmoqda.

Respublikamiz bank amaliyotida kreditlash shakllaridan keng foydalanish mijozlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, banklarning kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirishga, kredit riskini ma'lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlarini oshishiga olib keldi.

So'nggi yillarda banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning *lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi*. 2021 yil 6 noyabr. www.president.uz.

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni*. www.lex.uz.

3. И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. *Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие*. –СПб.: *Техническая книга*, 2017. -11 с.; Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. *Международная торговля. Учебное пособие*. –М.: *Гардарика*, 2016. – 45 с.; Н.Сирожиддинов. *Халқароо иқтисодиёт. 1-қисм: Ташқи савдо назарияси ва сиёсати*. -Т.: *Иқтисодийот*, 2019.-180 б.; Ҳамедов И.А., Алимов А.М. *Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари*. Т.: *Ўзбекистон Ёзувчилар уюмиси "Адабиёт жамғармаси" нашриёти*, 2010.- 328 б.; Жалолов Ж.Ж. ва бошқалар. *Ташқи иқтисодий фаолият асослари. Ўқув қўлланма*. Т.: *ДИТАФ*, 2011. - 156 б.; Назарова Г.Г. ва бошқалар. *Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув*:

тажриба ва амалиёт. Т.: ТДИУ, 2010.-224 б.; И.С. Хотамов ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият: ривожланиш асослари ва устувор йўналишлари. Оммабон рисола. Т.ТДИУ, 2014.-56 б.

4. Кейнс Дж.М. *Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ.* - М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с., Ш.З.Абдуллаева, У.Ў.Азизов. *Банк иши.* -Т.:Молия, 2019. - 1024 б.; А.А.Омонов, Т.М.Қоралиев. *Пул ва банклар* -Т.: Молия, 2018.-464 б.; А.А.Азларова, М.М.Абдурахманова. *Тижорат банкларининг актив ва пассивларини бошқариш. Ўқув қўлланма.* – Т.: Иқтисодиёт, 2019. -326 б.; Т.И.Вобоқулов, У.А.Абдуллаев. *Халқаро valyuta-kredit munosabatlari.* -Т.:Iqtisod-Moliya, 2019. – 230 б.; Т.И.Вобоқулов, У.А.Абдуллаев, Р.Т.Шомуродов. *Monetar siyosat.* -Т.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 223 б.; И.Тоймухамедов *Халқаро банк иши. Ўқув қўлланма.* –Т.: Иқтисодиёт, 2019. -176 б.; Р.Р.Тоҗиёев. *Халқаро valyuta-kredit munosabatlari.* –Т.: Iqtisodiyot, 2019. -276 б.; Абдуллаев Ё. ва бошқ. *Банк иши. Ўқув қўлланма.* – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. –533 б.;

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. www.cbu.uz.